

## SPECIFIC ASPECTS OF FORMING THE CHARACTERISTICS OF SELF-MANAGEMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

D. Saliyeva

Candidate of Psychology, Associate Professor  
Head of the Department of Applied Psychology  
Kokand State Pedagogical Institute

### ANNOTATION

The article provides recommendations on teaching children of younger school age to plan in the formation of self-control characteristics, the formation of decisiveness, taking into account practical aspects.

**Keywords:** self - management, independent fulfillment, decision-making, self-loss, planning, punctuality, learning process, learning activities.

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING O'Z-O'ZINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

D. Saliyeva

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Amaliy psixologiya kafedrası mudiri  
Qo'qon davlat pedagogika instituti

### ANNOTATSIYA

Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning o'z-o'zini boshqarish xususiyatlarini shakllantirishda rejalashtirishga o'rgatish, qatiyatlilikni shakllantirish, amaliy jihatlilar bilan bog'liq xolda olib tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'z - o'zini boshqarish, mustaqil bajarish, qaror qabul qilish, o'zini yo'qotmaslik, rejalashtirish, qatiyatlilik, o'quv jarayoni, o'quv faoliyati.

### АННОТАЦИЯ

В статье даны рекомендации по обучению планированию, формированию усидчивости, в связи с практическими аспектами при формировании особенностей самоконтроля детей младшего школьного возраста.

**Ключевые слова:** самоконтроль, самостоятельное выполнение, принятие решений, не потерять себя, планирование, целеустремленность, учебный процесс, учебная деятельность.

Bugungi kunda maktab oldida keyingi avlodlarga mavjud bilimlarni, qadriyatlarni, ko'nikma va malakalarni etkazishgina emas, balki bola shaxsida mustaqil harakat qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z-o'zini boshqarish xususiyatlarini shakllantirishdan iborat. Bu ta'lim jarayonida printsiptial jihatdan yangi vazifa bo'lib, bu ta'lim va tarbiya jarayonini bir muncha

murakkablashtiradi. Natijada ta'lim tizimi va eng avvalo umumiy o'rta ta'limda yana bir marotaba an'anaviy pedagogik savol "Nima o'rgatish kerak? Qanday o'rgatish kerak?" savoliga javob berish zarurati tug'iladi. Ma'lumki maktab bitiruvchisi bir shaklga solingan shaxs emas, balki o'ziga xoslikka ega bo'lgan, uzluksiz ta'limga layoqati bor, o'zining o'quv, kasbiy, ijtimoiy faoliyati tarzini, usullarin tez o'zgartira oladigan, boshqalar bilan va o'zi ustida ishlay oladigan steriotip bo'yicha lekin o'zgarayotgan sharoitlar va talablarni xisobga olgan xolda harakat qiladigan shaxs bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda o'quv jarayonida o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z - o'zini boshqarish xususiyatini rivojlantirish uchun unga o'zi mustaqil bajaradigan topshiriqlarni berishi, nazorat qilishi va unga ishonch bildirishi nihoyatda muhimdir. Berilgan topshiriqni bajarayotgan o'quvchi o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada o'z - o'zini boshqarishga undovchi motivlarni, qa'tiyatlilikni yuzaga keltiradi.

O'z faoliyatini rejalashtirish o'quvchining o'z-o'zini boshqarish qobiliyati bilan uzviy bog'liqdir. Chunki rejalashtirish asosida o'z-o'zini boshqara olish va maqsadga muvofiq tarzda boshqara olishni ta'minlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi.

Rejalashtirish - o'ziga xos kelajakni ko'ra olish qobiliyati bo'lib, bu hususiyat shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanligini muhim belgisidir.

Qa'tiyatlilik - bu o'z fikr va qarashlariga qa'tiy ishonch bo'lib, shaxsiy kuch quvvatiga ishonishdir. Qa'tiyatlilik belgilarini quyidagicha belgilash mumkin.

1. Biron bir hatti - harakatni bajarishda tez va o'ylangan qaror chiqarish.
2. Qabul qilingan qarorni ikkilanmasdan bajarish.
3. Qiyin vaziyatlarda va emotsional zo'riqishda, qaror qabul qilishda o'zini yo'qotmaslik.
4. Odatiy bo'lmagan vaziyatda qa'tiy harakat qilish.
5. Mustaqil tafakkurga va irodaviy sifatlarga ega bo'lish.

Qa'tiyatlilik bolaning o'z-o'zini boshqarish layoqatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zini boshqarish o'quvchining bilish jarayonlarini qay darajada rivojlanganligi bilan ham belgilanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik, irodaviy zo'riqish asosida bola o'zini atrofdagilarning talabini bajarish jarayonida yoki shaxsiy harakatga intilgandagina yuzaga keladi.

Qa'tiyatlilik va rejalashtirish muhim murakkab psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning o'z diqqatini qanchalik samarali tarzda boshqarishi, u eng muhim narsalarga qarata olishi, vaqtdan tez foydalana olishi, ortiqcha ishlarga berilmaslik, o'zini tiyish imkoniyati bilan bog'liq. O'z ishini rejalashtira olgan o'quvchi mustaqil tafakkurga ega bo'lib ya'ni har qanday sharoitlarda paydo bo'lgan muammolarni hal qilishning eng to'g'ri va maqsadga muvofiq'ini tanlay oladigan, uni amalga oshirishning barcha bosqichlari va vositalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shunday taqdirdagina u o'z ishiga dadil kirishishi, o'z-o'zini boshqarishi va o'quv faoliyatida yuqori ko'rsatgichlarga erishishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida boshqarish xususiyatini aniqlash va rivojlantirish uchun biz quyidagi metodikalardan foydalandik. **O'qituvchining "xatosi"** nomli metodika quyidagicha tashkil qilinishi kerak.

- O'qituvchi o'zi qanday jarayonda "xato" qilishi kerakligini aniqlab olishi kerak. Bu "xato" o'quvchilarning bilish darajasiga mos kelishi kerak.

- “Xato”lar o‘yin tarzida emas, balki o‘quv jarayonining vaziyatidan kelib chiqadi. (Qani meni xatoimni aniqlangchi! Nahotki men xato qilgan bo‘lsam! Qani tekshiraylikchi!) O‘quvchilar bu paytda o‘qituvchining xatosini to‘g‘irlashga harakat qilishi kerak.

- O‘qituvchining “xatosi”ni topgan o‘quvchilarga, ularni ziyrak, zukko, uni xatosini to‘g‘irlashga yordam berganliklari uchun rag‘batlantirish zarur.

1 - metodika masalan: 2-sinf ona tili darsida o‘quvchilarga quyidagi so‘zlarni avval bo‘g‘inga bo‘lish, so‘ngra bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga binoan bo‘lib yozing.

*Olim, paxta, taxta, daraxt, ulkan, armug‘on, uzum, hammom, mulla, chorbog‘.*

So‘zlar qaysi qatorda bo‘g‘inga to‘g‘ri ajratilgan va imlo xato qilinmagan?

A. Ka-nal B. KAN-AL

mam-la-kat ma-mla-kat

kar-von Ka-rv-on

yom-g‘ir Yo-mg‘ir

ta-bi-at tab-i-at

2 - metodika. So‘zlardagi proportsiyani toping.

Qora – oq = olov- .....(suv)

Urush - ulim =.....- xayot (tinchlik)

Silovsin – mushuk = bo‘ri -.....(kuchuk)

Lampa- .....= radio- ovoz (yorug‘lik)

3- metodika. Shifrlangan xarflar.

Bolalarga 7 ta shifrlangan so‘z va shifr kalitlari tafsiya etiladi. Har bir so‘zni raqamlar bilan shifrlash lozim bo‘lib va har bir so‘zni shifrini eslab qolish va ortiqcha so‘zni topish zarur.

Kalit

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
a	r	o	u	m	k	l	i	d	n

0110, 8080, 2640, 3175, 67429, 10450,80905

Vazifa bajarilganidan so‘ng o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda berilgan namuna bilan solishtiradi. Vazifani bajarish jarayonida bola o‘z bilish jarayonlarini boshqarib boradi va xatti-harakatlarini nazorat etadi.

Xulosa qilib aytish joizki, bugungi kunda o‘quv jarayonida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishni shakllantirish uchun o‘qituvchilarga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin.

1. O‘qituvchi tomonidan berilgan vazifa bilan har bir bola o‘zi mustaqil shug‘ullanishiga e‘tibor qaratish.
2. Har bir bolani o‘z xatti-harakatlarini nazorat etishga o‘rgatish.
3. Har bir bolada o‘zi bajargan ishini o‘zi –o‘zini baholashga o‘rgatish lozim.

## REFERENCES

1. Дубровина I.В. «Готовность к школе –М.: “Академический проект”. 2001- 95 с.
2. Психологическая помощь и консультирование в практической психологии. Под. Ред. Тетушкиной М.К. СПб. “Речь”, 2001.

3. Abdullaevna, Saliyeva Dilorom, and Rakhmonova Ayshakhan Oribovna. "Gender Stereotype In Adolescence The Study Of The Formation Of Properties." *Journal of Positive School Psychology* 6.10 (2022): 3446-3451.
4. Abdullayevna, Salieva Dilorom, and Saipova Mehri Valievna. "Mental Characteristics Of Experience Teenagers From Labor Immigrant Families Who Feel Lonely." *Journal of Positive School Psychology* 6.11 (2022): 423-427.
5. Mirjonovna Omonova Sevara. "Oliy ta'limda ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishning tashkiliy masalalari." *Ta'lim fidoyilari* 13 (2022): 41-45.
6. Yo'lchiboyeva, D. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim dasturini amaliyotga tatbiq etishning samarali usullari." *XALQ TA'LIMI* 1 (2021): 115-119.
7. Yulchiboyeva, Dilfuza. "Main tasks of educational processes." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.6 (2021): 23-27.
8. Ergashevna, Yulchiboyeva Dilfuza. "PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE MANIFESTATION OF EMOTIONAL STATES IN A PERSON." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.05 (2021): 583-587.
9. Ergashevna, Yulchiboeva Dilfuza. "Psychological and Pedagogical Aspects of the Development of the Emotional Sphere of Preschool Children." *European Multidisciplinary Journal of Modern Science* 5 (2022): 367-371.
10. Akhmedov, B. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. B., Tojiboeva, G. R., Artikova, N. S., Urinova, N. S., ... & Omonova, S. M. (2022). PEDAGOGICAL SCIENCE EDUCATION MANEGMENT IN TEACHING SCIENCE OF PEDAGOGICAL SCIENCES. *Uzbek Scholar Journal*, 10, 529-537.